

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ZOHID ISTILOH VA OBRAZ SIFATIDA

Aziza Omanboyeva,

Ma'mun universiteti “Tillar va adabiyot” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Tasavvuf adabiyotining o'ziga xos obrazlari mavjud. Mazkur maqolada zohid obrazi va uning maqom-martabasi yoritildi. Shuningdek, zohidona hayotning nafs tarbiyasidagi o'rni ko'rsatilib, diniy, badiiy asarlar asosida dalillandi.

Kalit so'zlar: zohid, zuhd, tasavvuf, din, orif, payg'ambar, maqom, hol, dunyo.

O'n sakkiz ming olamda Odam va uning avlodlari yaratilibdiki, ularga bir imtihon berildi. Bu o'zining Yaratuvchisini anglash va Unga munosib qullik qilishdir. Bu nafs riyozati bilan erishiladigan hol va bilimdir. “O'zini (Nafsini) bilgan – Robbisini bilur” hadisi bejizga emas. Haqiqatan, komillik yo'li – o'zni, o'zlikni, nafsni tanish yo'li deyiladi. Bu yo'lda harakat, mashaqqat, riyozat chekish orqali inson toblanadi. Bu yo'l sohiblari oshiq, darvesh, faqr va oriflar bo'lib, ularning ezgu maqsadi insoniyatni nafsni tanishga, uning jaholat, g'aflat va hoyu havo sari yetaklovchi nayranglari tuzog'iga ilinmaslikka da'vat etish bo'lgan¹. Insonga ilm hamda ma'rifat beruvchi Robb ul-olamin – Alloh azza va jalladir. Bani bashar tarbiyasi ilohiy kitoblar orqali amalغان oshirildi. Kamolotning asrori, usulu arkoni samoviy kitoblardan olingan. Shu bois Zabur, Tavrot, Injil va Qur'on tajriba maktablari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ammo bugungi yetuk, haqiqiy tarbiya kitobi Qur'oni karim va Hadisi sharif ekanini alohida e'tirof etgan holda aytish mumkinki, dunyoparastlikdan yiroq bo'lish, oxirat diyori g'amini yeyish bilan nafsni jilovlash har doim bo'lgan. Ayniqsa, zohidlik hayoti payg'ambarlarning barchasida bor edi. Zohid so'zi (ko'pligi zuhhod) arabcha zuhd lafzining foil shaklidan yasalgan. Eng keng qo'llanilgan ma'nosi: “qiziqmaslik, dunyoni qadrsiz deb bilish, undan yuz o'girmoq”. Dunyoga, mol-u mulkka, nafsga qarshi mujohada etish, Allohdan qo'rqib gunohdan qochish, umrini ibodatga bilan o'tkazib, dunyodan voz kechish ma'nosini anglatuvchi zuhd, asosan, dunyoni tark etish va oxiratga yo'nalish uchun dunyodan etak silkmoqdir² ma'nosida tasavvufiy atama sifatida qo'llaniladi. Zohid dunyoviy ishlardan yuz o'girib, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lgan kishi. Zohid arab tilida hayratlanish, bashorat qilish kabi ma'nolari turlicha bo'lgan so'z. Qur'onning faqat bir o'rnida, ya'ni Yusuf surasining hazrati Yusuf alayhissalomning sotilishi haqidagi: “*Vasharovhu bisaminin bahsin dorohima ma'duvdotihin va kaanu fiyhi minaz zohidina*” (Keyin, karvon Misrga yetib kelgach), uni arzon bahoda — bir necha tangaga sotib (Chunki) ular (Yusufga) qiziqmagan

¹ А.Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 211-213.

² Mehmet Doğan. Büyük Türkçe Sözlük. İstanbul, 1996, – S. 1168.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

edilar (Yusuf/20)” 20-oyatida bu so'zning ma'nosi keltiriladi. Odamlar uni sotib olishga qiziqmaganliklari ma'nosiga sohibdir³. Zohid – qiziqmaslik, beparvolik, alal oqibat tark etish ma'nosida keladi. “Turob Naxshabiy zuhddagi «z» harfini – zinoatdan saqlanish, «h»ni – havoga bermaslik, «d»ni – dunyoparastlik qilmaslik deb izohlagan ekan. Chindan ham zohidlik axloqida zinakorlik, havodorlik va dunyoparastlik keskin qoralangan. Ye.E. Bertels yozganidek, zohidlar hayotida yana bir jihat muhim o'rin egallagan. Bu – halol bilan haromni farqlash, halolga haromni mutlaqo yaqinlashtirmaslik”⁴. “*Zuhd* — dunyo lazzatidan voz kechib taqvo bilan shug'ullanish. Bu so'zning har bir harfiga tasavvufiy ma'no bog'lab, *ziynat*, *havas* va *dunyoni tark etish* deb ham talkin qiladilar”⁵. Chinakam zohidlar nabiyilar edi. Ularning hayotida Allo taologa ehtiyojmandlikdan boshqa bir istak bo'lmagan. Zohid shaxsiyatini anglash uchun, avvalo, Payg'ambarlar tarixiga nazar solish lozim. Yusuf a.s. haqida “Qisasi Rabg'uziy”da o'qiymiz: “O'z quliga oshiq bo'ldi, teb manga malomat qildingiz, ul qulumdin tonmasman. Yusufni undattim qapug'larni berkitdim, etagin men yirtdim. Netakkim Tengri azza va jalla andin xabar berur.

Vala qod ravadtuhu an nafsihi. Yusuf o'zin saqladi, manga bo'yunsunmadi.

Fasta'sama. Bu Yusuf ham ko'rkluk turur, ham arig' turur, ham zohid turur, ham olim turur. Man ani ko'nglincha ko'zmag'ayman, rasvo bo'ldum, el eshitti. Yuzum suvi to'kuldi”⁶. Yusuf a.s.ning zamonasining go'zal ayollaridan bo'lgan oshiq Zulayho taklifini rad etishi uning zohidligini tasdiqlaydi. Zohidlikda tarkning asosiysi halolni haromdan ajratish bilan bo'ladi. Hamma zamonlarda bu shariat mezonlari bilan bo'lgan. Shariatga bo'ysunish zohidning ilk tarkini ko'rsatadi. Nabiyilarning barchasi shariatga tobe hamda uning targ'ibotchilari bo'lishgan. Iskandarning ham zohid yo'lini tanlashi shunday hikoya qilinadi: “Ul toshkim, ul kim ersa berib yibordi, ani olimlarga ko'rsatib so'rdi: «*Bu toshda ne hikmat bor?*» Aydilar: «Taroza tortgil, bir yonda muni k,uygil, yana bir yonda o'zga narsa». Andog' qildilar ersa har necha bir yonga tosh, temur soldilar, ul-o'q, og'ir keldi. Ulamolar tongladilar. Xizr bir maqomda o'lturub kular erdi. «*Bu ne hikmat turur?*», teb surdilar ersa, Xizr aydi: «Bu toshlarni qamug' ketaring va tosh o'rniga bir ovuch tuproq soling». Toshlarni ketarib, o'rniga bir ovuch tuproq soldilar ersa, barobar keldi. Aydilar: «*Bu ne hikmat turur?*» Xizr aydi: «*Hikmat ul tururkim*, Mavlo taolo qamug' dunyo mulkin berdi. Aning birla tuymassen. Qachon lahadga kirsang bir ovuch

³ Cebecioğlu E. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınları, 1997. – B.260.

⁴ Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б. 58.

⁵ Ислом тасаввуфи манбалари. Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б. 355.

⁶ Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 154.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

tuproq birla tuyarsen». Zulqarnayn bu so'zlardan pand oldi. Dunyoni quydi, zohid buldi»⁷. Mana shunday ibratli hikoyatlar ham zohidlarning ko'payishiga sabab bo'lgan. Ular Alloh taolaga toat-ibodat qilish, amallarida ehson maqomiga ko'tarilishni oliy maqsad qilishgan: “Aymishlar, Bayt ul-Muqaddasda bir Mano otlig zohid bor erdi. Tekma kunda turt yuz rak'at namoz kilur epdi. Hudhud otlig' xotuni bor erdi, tekma kecha bir farishta unga ko'kdin ta'om kelturur erdi”. Zohidlar qalblarini ibodat ila poklagach, ularga turli karomatlar berilgan. Hatto farishtalarga nisbatan ham zohidlik ulug' martaba ekanligi ma'lum. Odamzodning zohid tarkiga erishishi juda qiyin. Hatto malaklarning ichidan eng olim va zohidi Uzzo va Uzoyo otlig'ni yerga tushirib, imtihon etishgani haqida qissa ma'lum. Bu qissada ham hayvoniy, ham malakoniy sifatlarni jam etgan, iroda sohibi insonlardek bo'lib, zohidlikka erishish mushukilligi ayon bo'ladi: “Farmon bo'ldi farishtalarg'a ko'k qapug'in ochtilar, aydi: «Olim va zohidraklaringizga boqing», teb. Qamug' tavba qildilar. Aydilar: «Ilohiy, san bizdin bilganraksen», tedilar. Uzzo va Uzoyo xamrdin ayildi ersa iliklarinda qon ko'rdilar, zino qilmishlar, xamr ichmishlar. Yuzuk iliklaridin uchmish. O'kunub yig'lashtilar, hazratda yuzimiz suvi qolmaydi, teb»⁸. Payg'ambarlarning hayoti zohidlik hayoti ekan, ummatlariga ham bu amallar meros sifatida o'tgan. Shu bois turli din va e'tiqodlarda tarbiyada muhim tajribalardan biri zuhd g'oyasi va zohid siymosi bo'lgan. Zuhd ta'limoti ba'zi G'arb olimlari nigohida boshqa ta'limotlar bilan, xususan, xristianlik dinidagi rohiblik bilan o'xshashdek tuyilishi haqida ko'plab fikrlar uchraydi. Bunga sabab esa islom dinida “rohiblik yo'qligi” deya dalil keltiradilar. “Zohidlik harakati o'zining ko'plab dastlabki elementlarini saqlab qolishi bilan birga, o'z ta'limotining nazariy asosini ham izlay boshladi. Kerakli dalillarni izlash asnosida zohiddar, ehtimol, ham ilohiyotning, ham turli falsafiy maktablarning terminologiyasi va usullaridan foydalana boshlaganlar»⁹, - deydi rus mustashriqi Ye.E.Bertels. Islom dini juda ko'p o'lkalarga shiddat bilan tarqaldi. Insonlar o'z e'tiqodlari, urf-odatlarini, maaniyatidagi ayrim o'xshashliklarni saqlab qolishga urinishlari tabiiy edi. “Zuhdning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillardan biri boshqa dinlardan kirib kelgan tushuncha va tamoyillardir. Zuhdiy hayot juda muhim va institutsional bo'lgan yana bir e'tiqod xristianlikdir. Zohidona madaniyat hali tizimlashtirilmagan davrlarda xristian dindorlari o'zlari ishlab chiqqan turmush tarziga ega edilar. Yeb-ichishdan o'zini tiygan, oz uxlagan, cho'llarda yashagan, shahvoniylikdan voz kechgan birinchi zohidlar cho'l ahli (zahid),

⁷ Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 113.

⁸ Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 67.

⁹ Bertels. So'fizm va so'fiy adabiyoti. – B. 45.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

dunyodan uzoqlashganlar (ankorit), yolg'iz yashaganlar (rohib) deb atalgan. Ochiq joyda yashab, tanasini zanjirband qilib, umrining oxirigacha shu yerda qoladigan zohidlarni “gipaitra”, umrini daraxtda tugatganlarni “dendritae”, ustunda yashovchi zohidlar deb atagan. "stilitlar" deb atalgan.

Xristianlikda monastir o'zining boshqa funksiyalari qatorida muhim astsetik muassasadir. Ko'pgina xristian sektalari, protestantizmdan tashqari, o'zlarini poklash uchun monastir astsetik hayotni qabul qildilar. Xristian astsetik hayoti ma'lum tushunchalardan ilhomlangan. Ulardan eng muhimi, Iso alayhissalomga taqlid qilish, dunyo ne'matlarini tark etish va farishtadek hayot kechirishdir. Xristian zohidining hayotiy tamoyillari bo'lgan bu asosiy qoidalar hayotning o'tkinchiligiga, hayotning asl gunohga qadar iflos tomoni borligiga va yaqinroq bo'lish uchun dunyodagi hamma narsadan qochish kerakligiga ishonishdan kelib chiqadi. Islom fathlari natijasida arablar boshqa millatlar bilan aralashgach, boshqa dinlardagi zuhd tushunchasi islomiy zuhd bilan aralashib ketgan. Xususan, nasroniy zuhdi Iroq, Shom va Misr o'lkalarida keng tarqalishni boshlagan”. G'arb xalqlarida zuhd atamasi o'rnida *asceticism* atamasi qo'llangan¹⁰.

Hinduizm, buddizm, va ayniqsa, jaynizm astsetik hayotga o'xshashliklar bilan to'la. Uzoq Sharq dinlarida ruhni tarbiyalash maqsadida ma'lum tamoyillarga asoslangan asket hayot va zohidlik mavjud. Asketizm buddizmdagi muhim diniy e'tiqod bo'lib, bugungi kunda ham ko'plab izdoshlariga ega. Zuhdiy tafakkur Hinduizmda hindlarning muqaddas kitobi Rigvedada uchrashi mumkin va qadimiy manbalaridan bo'lgan Upanishad va Aranyaka nomli qadimiy asarlarda mavjud¹¹. Ammo Shayx Abdulqodir Giloniy aytganlaridek: “Shuni yaxshi bilgilki, saodat shaqovatga, shaqovat esa saodatga tarbiya vositasi ila aylantirilishi mumkin. Buni janobi payg'ambarimiz (s.a.v.) marhamat qilganlari ushbu hadisi sharifdan ham bilish mumkin: “Hamma inson farzandlari tug'ilar ekan, islom fitratini aks ettiradi, faqat keyinchalik ularni ota-onasi yahudiy, majusiy, nasroniy qilib tarbiyalaydi”¹². Islom fitratida yaratilgan inson islomiy ta'lim-tarbiya ila kamolotga erishadi. Shu bois sharq mumtoz adabiyoti, jumladan, turkiy adabiyotdagi zohid islom shariatida bo'lgan zotlardir. Boshqa din va e'tiqodlardagi tarkidunyochilik bilan o'xshatish va tenglashtirish noo'rin. “Tasavvufiy hayot”da zohidning ma'naviy olami quyidagicha tushuntiriladi: “Zuhd qo'lda mavjud va mavjudligi mahzur sanalmagan mol-ashyodan kechmoqdir. Aks holda kelajakda qo'lga kiritiluvchi mol-u mansab zuhdga asos

¹⁰ Бу ҳақида қаранг: Islam ansiklopedisi 44. Cild 3-b; Asceticism and Ritual Self-Practices – Stockholm University. <https://www.su.se/english/research/research-subjects/religionshistoria/asketism-och-rituella-j%C3%A4lvpraktiker>

¹¹ Johannes Bronkhorst the two sources of indian ASCETICISM Second edition Delhi: Motilal Banarsidass. 1998.

Гилоний А. Сиррул сир. Мактубот. – Тошкент: Мовароуннахр, 2005. – Б. 41.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bo'lolmaydi. Buning teskarisini ham iddao qiluvchilar ham bo'lishgan. Bundan tashqari, qo'lda mavjudligi gunoh hisoblangan narsalarni tark etmoq zuhd hisoblanmaganidek, insonning jufti bilan jinsiy munosabatni tark etmog'i ham zuhd emasdir. Hazrati Ali sahobalar ichida eng zohidi bo'lsa-da, uch-to'rt oilalari bor edi"¹³. Demak, zohidlik ma'naviy bir o'lchamda belgilanadi. Tark, avvalo, qalbning tarki bo'lmog'i kerak. Vujud xilvatni ixtiyor etsin, o'tkinchi lazzatlardan voz kechsin, ammo ular ruhoniyatga ko'chmasa, bu zohidlik emas. Bu shunchaki aldov, riyodir. Rasululloh va sahobalar zuhdiy hayotni eng oliy ko'rinishi yashaganlardir. Ulardan keyin kelgan tobeinlar hamda taba tobeinlar ko'ngillari Haqqa bog'lab, go'zal hayotni davom ettirdilar. Shu bois zohidlar haqida so'z borganda, mana shu ulug' zotlar ko'z oldimizda gavdalanmog'i kerak. Turk olimasi S.Tuzel zohidlarning sanadini shunday keltiradi: “Tasavvufda Hazrati Payg'ambardan keyin zuhd, taqvo, ma'naviy hayotning ilk tamsilchilari ahli suffadir. Ular Masjidi nabida istiqomat etgan, “adyafu'l-mu'minin” nomi bilan tanilgan, tasavvufiy hayot ilk o'laroq ularning hayotida zuhur etganligi qabul qilingan bir jamoadir. Ular: Haz. Abu Bakir, Haz. Umar, Haz. Usmon, Haz. Ali, Haz. Hasan, Haz. Husayin, Samoni Forsiy, Abu zar al-G'iforiy, Abdullah b. Umar b. Hattab, Abud Dardo, Biloli Habash r.a.lar”¹⁴.

Musulmonlar uchun o'rnak Muhammad (s.a.v) hayot tarzidir. Albatta, zohidlar uchun ham ibrat xotami nabiy yashash mezonlari bo'lgan. Hadislarda, payg'ambarimiz siyrati va hayoti aks ettirilgan ishonchli kitoblarda ham Haq elchisining nihoyatda sodda yashaganliklarini, turmush tarzi nihoyatda oddiy ekanidan guvohlik beradi. Muhammad alayhissalomga payg'ambarlik berilmasdan ilgari ham “Hiro” tog'ida mujohadaga berilganligi, uzlatga chekinib Buyuk Yaratguvchining sifat va tajallisini idrok etish, balki his etishga intilishi uchun dunyo hayotidan yuz o'girgani ma'lumdir. “Shu xususiyatlar tufayli ham arablar unga o'sha paytlari “Muhammad Parvardigoriga oshiq bo'ldi”- der edilar”¹⁵.

Shuni ta'kidlash joizki, tasavvuf – nafsni tanish hikmati, ya'ni ma'rifatdir. Inson, avvalo, o'zining yaratilish, imtihon dunyosiga kelish sababini teran anglamog'i kerak. Bu mushohadalar o'z-o'zidan insonda nafsini tarbiyalashga, Parvardigorini tanishga qat'iyat, sabr-toqat paydo qiladi. Va bu ishtiyoq, intilish va izlanish oriflik maslagidir. Alal oqibat ma'rifat talabgori bashariy sifatlarni anglagan, ilohiy sirlarni his etgan nafs sohibi – orifga aylanadi. Tariqatning asl maqsad-muddaosi yagona – nafsni orif aylashdir. Bunda zohidona hayotning o'rni muhimdir.

¹³ Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Тошкент: Мовароуннахр, 2004. – Б. 89.

¹⁴ Sevdâ Tezel. Tasavvuf'ta sahâbe algisi. – İstanbul: 2022, – S. 87.

¹⁵ Osman T. Tasavvuf Tarihi. – İstanbul: Seha, 1995.